

DUNYO MINTAQALARI SIYOSIY XARITASI

Muqaddasoy Sulaymonova

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada siyosiy xarita-siyosiy geografiyaning o'rganish ob'ekti, siyosiy xarita shakllanishida turli davr va bosqislarni muhimligi va bog'liqligi, tinch yo'l bilan yoki urushlar, nizolar ta'sirida siyosiy xaritani o'zgarishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: siyosiy xarita, miqdor va sifat o'zgarish, qaram yerlar, mustamlakalar, suverent, terrorizm, yangi davr, qadimgi davr.

Аннотация. В данной статье говорится о политической карте - объекте изучения политической географии, значении и связи разных эпох и этапов формирования политической карты, изменении политической карты мирным путем или под влиянием войн и конфликтов.

Ключевые слова: политическая карта, количественные и качественные изменения, зависимые земли, колонии, суверенитет, терроризм, новая эпоха, древняя эпоха.

Annotation. This article discusses the political map - the object of study of political geography, the importance and interrelation of different periods and stages in the formation of the political map, the changes in the political map, whether peacefully or under the influence of wars and conflicts.

Keywords: political map, quantitative and qualitative changes, dependent territories, colonies, sovereign, terrorism, new era, ancient era.

KIRISH

Jahonning xaritasi asrlar davomida o'zgarib, u davlatlarning paydo bo'lishi va parchalanib ketishini, ularni chegaralarini o'zgartirishini, yangi yerlarni kashf qilinishini va mustamlaka etilishini, metropoliya va mustamlakalarning paydo bo'lishini, dunyoni bo'lib olish va qayta taqsimlanishini aks ettirib kelgan.

Biroq dunyoni hozirgi siyosiy xaritasi - avvalo siyosiy geografiyani o'rganish predmetidir. Siyosiy geografiya esa iqtisodiy va sotsial geografiyani o'ziga xos tarmog'idir.

Dunyoning siyosiy xaritasi o'zining shakllanish bosqichlariga ega. Ularda formatsiyalarni, davlatlarni rivojlanish bosqichlarini kuzatish mumkin.

Qadimgi bosqich - eramizdan avvalgi 5-asrda eramizning 5-asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Yer sharidagi dastlabki quldorlik davlatlari tashkil topishi bilan xarakterlanadi. Ular orasida qadimgi Misr, Gresiya, Rim, Xorazm, So'g'diyona, Turkiston xoqonligi, Hitoy kabilar dunyo madaniyatiga katta hissa qo'shganlar. Siyosiy xaritani o'zgartirishda asosiy vosita urushlar bo'lgan.

O'rta asr bosqichi - 5-14 asrlarni o'z ichiga olib, feodalizm davrida rivoj topgan. Feodal davlatlar yangi yerlarni ko'proq bosib olishga intilgan. Ispaniya, Portugaliya, Kiev rusi, Vizantiya, Temur imperiyasi, Angliya, Fransiya kabi davlatlar yer qismlarini bo'lib olganlar.

Yangi bosqich - 15-asrdan 1-jahon urushi tugaguncha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Bu davrda buyuk geografik kashfiyotlar, kapitalizmni kolonial ekspansiyasi davri bo‘ldi. Iqtisodiyotni rivojlanishi, yangi sanoatlashgan davlatlarning tashkil topishi, yangi transport turlarining paydo bo‘lishi, planeta hududini qayta taqsimlashga olib keldi. Agar 1876 yilda Afrikani 10 % maydoni bosib olingan bo‘lsa, 1900 yilda 90 % bosib olindi.

1783 yildan (AQSh tashkil topgan yil) 1861-1865 grajdanlar urushi tugaguncha AQSh hududi sotib va bosib olish hisobiga o‘n barobar kengaydi. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlar Afrikani 90 %, Osiyoni 56 %, Avstraliyani 100 %, Amerikani 27 % ni bosib oldilar. Butun koloniyalarni 45 % hududi va 70 % axolisi Buyuk Britaniyaga mos ravishda 15 va 10 % Fransiyaga tegishli bo‘ladi. Shu davrda O‘rta Osiyo xonliklaridan Qo‘qon xonligi ham tugatildi. (1876).

Eng yangi bosqich - 2 davrni o‘z ichiga oladi.

1-Davr. - 1945 yilgacha davom etadi. Dunyo xaritasi kuch yordamida qayta-qayta bo‘lindi. Xindi Hitoy, Yaqin Sharq, Okeaniyada koloniyalar tashkil topdi.

2-Davr - 1945 yildan bugungi kungacha davom etmoqda. Bu davrda bir xalqni boshqa bir xalq tomondan boshqarilishi butunlay tugatilishiga qaratilgan harakatlar bo‘lmoqda. 1956-70 yi. Afrikada 38 ta, Osiyoda 7 ta, Amerikada 5 ta davlat mustaqil bo‘ldi. 1990 yil Germaniya birlashdi. 1991 yil 269 dekabrda SSSR davlat va xalqaro huquq sub’ekti sifatida tugatildi. Eng katta imperiyalardan biri tugatildi. Yugoslaviya, Miyanma, Efiopiya kabi davlatlarda ham o‘zgarishlar bo‘ldi. Xaritadagi o‘zgarishlar miqdor va sifat jihatidan bo‘lishi mumkin.

Hozirgi zamon mamlakatlarining xilma xilligi.

1. Mamlakatlarning soni va ularning guruhlanishi. Dunyoning hozirgi siyosiy haritasi 230 ga yaqin mamlakatlar va hududlar bor. Bularning asosiy qismi mustaqil davlatlardir.

Mamlakatlar soninig bunchalik kattaligi ularni guruhlantirishni taqozo etadi. Bunda birinchi navbatda miqdoriy ko‘rsatkichlar mezon qilib olinadi. Mamlakatlarning hududini kattaligi va aholisining soniga qarab guruhlashtirish eng keng tarqalgan.

Hududning kattaligiga ko‘ra dunyoda har birining maydoni 3 mln kv.metrndan ortiq 7 ta eng katta mamlakatga ajratiladi. Ularning yalpi maydoni yer yuzidagi quruqlikning 1/2 qismidan ortig‘ini egallaydi. Ular Rossiya, Hitoy, Kanada, AQSh, Braziliya, Avstraliya, Hindiston.

2. Mamlakatlarni toifalarga ajratish. Iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar. Jahon mamlakatlari faqat maydonining katta kichikligi va geografik o‘rnigagina emas, balki sotsial-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Mamlakatlarning rivojlanish darajasiga ko‘ra: a) iqtisodiy rivojlangan va b)

rivojlanayotgan mamlakatlar toifasiga bo‘lish qabul qilingan. BMT iqtisodiy jihatdan rivojlangan ga Yevropa, Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Avstraliya va okeaniyaning jami 60 ga yaqin mamlakatlarini kiritgan. Bularning iqtisodiy va aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi ichki mahsulotni ancha ko‘pligi bilan ajralib turdi. Bulardan birinchi guruhini AQSh, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya va Kanadadan iborat “G‘arbning katta yettilik mamlakatlari” tashkil etadi. Bular g‘arb dunyosining yetakchi mamlakatlari bo‘lib katta miqyosdagi iqtisodiy va siyosiy faolligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan mamlakatlarning ikkinchi kichik toifasiga kamroq rivojlangan mamlakatlar, birinchi galda Yevropa mamlakatlari kiradi. Bu mamlakatlar har birining siyosiy iqtisodiy qudrati uncha katta bo‘lmasa ham, lekin umuman olganda ular jahon ishlarida katta shu bilan birga tobora ortib borayotganligi ahamiyat kasb etadi. Ularning ko‘pchiligida axoli jon boshiga to‘g‘ri keladigani ichki yalpi mahsulot, katta yettilik mamlakatlaridagiga tengdir. SSSRni parchalash natijasida 1991-yil oxirida barpo bo‘lgan mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga (MDH) kirgan mamlakatlar aloxida toifaga kiritilgan. Qolgan barcha mamlakatlarni va BMT hududlari rivojlanayotgan mamlakatlar toifasiga kiritiladi. Ular butun yer yuzini quruqlik maydoni 1.2 qismini egallaydi. Aholisi esa dunyo aholisi sonining yarmidan ortig‘i, Hitoyni qo‘shib hisoblaganda 70 % ni tashkil etadi.

Juda katta va turfa qiyofaga ega “uchinchi dunyo” mamlakatlari ichki sharoiti jihatdan xilma-xildir. Ular bir qancha toifalarga ajratiladi.

1. Tayanch iboralar mamlakatlari (Hindiston, Braziliya, Meksika).
2. Yangi sanoatlashgan mamlakatlar: (Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur).
3. Tashqariga neft chiqaruvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, Quvayt, katar, BAA).
4. O‘z taraqqiyotida sezilarli darajada orqada qolayotgan.
5. BMT tasnifiga ko‘ra eng kam rivojlangan mamlakatlar (42 ta) (Neopal, mali, Gad, Efiopiya, Somali)...

Xalqaro munosabatlarning dunyo siyosiy xaritasiga ta’siri.

1. Dunyoning siyosiy xaritasi. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoning siyosiy xaritasida bir qancha sotsialistik davlatlarning paydo bo‘lishi. Mustamlakachilik sistemasining parchalanishi va o‘nlab ozod bo‘lgan mamlakatlarning vujudga kelishi, qo‘shilmaslik harakatining o‘sishi kabi muhim jarayonlar o‘z aksini topdi. Urushdan keyin butun davr asosini g‘arb bilan sharqning jahon bo‘ylab qarama-arshi turishi ular o‘rtasida “sovuq urush”ni tashkil etadi. Ko‘pdan-ko‘p harbiy siyosiy ittifoqlar, shu jumladan 2 ta yirik Ittifoq: Shimoliy Atlantika shartnoma (NATO) va Varshava

shartnomasi tashkilotlari (VShT) vujudga keldi. Yer kurrasining turli joylarida yuzlab harbiy bazalar bunyod etildi. Mahalliy urush bo‘lib turdi.

Dunyoning siyosiy haritasida ko‘pdan ko‘p keskinlik o‘choqlari, region kelishmovchiliklar (janjallar) vujudga kelib turdi.

2. Hozirgi zamon xalqaro munosabatlari va dunyoning siyosiy xaritasi. 80-yillarning ikkinchi yarmida munosabatlarda qrama-qarshi turgan mamlakatlarda bir-birini tushunish va xamkorlikka o‘tish boshlandi. O‘zaro ishonchsizlik, xavfsirash va dushmanlik o‘rniga yaxshi qo‘shnichilik qaror topa boshladi. Bu jarayon SSSR (MDH) bilan AQSh, Yevropa davlatlari, Osiyo-Tinch okeani regionini (OTR), boshqa huudlar munosabatlarida aks etdi. Dunyoning siyosiy xaritasida 1990 yilda Germaniyaning birlashishi haqiqiy qurolsizlanishning boshlanishi Varshava shartnomasi tashkilotining tarqatib yuborilishi, NATOning asosan siyosiy ittifoqqa aylantirilishi kabi muhim jarayon va hodisalar o‘z aksini topdi.

Siyosiy xaritalardagi eng muhim iboralardan biri “Davlat hududi” tushunchasidir. Davlat hududi bu yer sharining ma’lum mustaqil davlat ixtiyorida (yuridiksiyasida) bo‘lgan qismidir. Davlat hududiga quruqligi, yer osti suvlik va havo bo‘shlig‘i kiradi. Suvlik hudud ichki va hududiy suvlarga bo‘linadi. Dunyo okeanida 12 dengiz mili, ayrim holatlardagi 200 miligacha bo‘lgan yerlar davlat hududiga kiradi. Bundan tashqari kemalar, samolyotlar, ichki qismi, suv osti kabellari davlat tashqarisida bo‘lsa ham uning yuridiksiyasida qoladi.

Davlat hududi va siyosiy haritasini o‘zgarishida “Qaynoq nuqtalar”ni roli katta. Dunyoda bunday joylarga Hindistonni kashmir shtati, Checheniston, Yugoslaviya kabilarni kiritish mumkin. Bu nuqtalarda suveren (fransuzcha - mustaqil) - siyosiy mustaqil davlatlarning davlat chegaralari o‘zgarishi mumkin.

XULOSA

Demak, dunyo siyosiy xaritasining rivojlanish bosqichi, ancha sarlar davomida amalga oshgan. Siyosiy xaritadagi eng muhim iboralardan biri davlat hududi tushunchasidir. XIX asrning ikkinchi yarmida munosabatlarda qrama-qarshi turgan mamlakatlarda bir-birini tushunish va xamkorlikka o‘tish boshlandi. O‘zaro ishonchsizlik, xavfsirash va dushmanlik o‘rniga yaxshi qo‘shnichilik qaror topa boshladi. Shu tariqa dunyo siyosiy xaritasi o‘z aksini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K.Abirqulov, Kurboniyozov R. Iqtisodiy geografiyadan amaliy mashg‘ulotlar. Urganch, 1999.
2. Jahon mamlakatlari, (ma’lumotnoma). T., 1990.

3. Gladkiy Yu.N. Lavrov S.I. Ekonomicheskaya i sotsialg'naya geografiya mira. M., 1991. Moskva.
4. V.P.Maksakovskiy. "Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyachsi". T. 1986.
5. Politicheskaya karta mira (nauchno -populyarnoy serii).
6. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришнинг Меъерий-Ҳуқуқий Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences Scientific Journal*, 266.
7. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). Yangi O'zbekiston Orifa Ayollari Va G'arb Ayollarining Jamiyatdagi Mavqeyi Va Ularning Huquqlari. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
8. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. *Экономическое развитие и анализ*, 1(8), 109-114.
9. Abdilakimova, U. B., & Musoyeva, A. B. (2022). The Importance of Socio Linguistic Competence in Forming Perspective Foreign Language Teachers'professional Development.
10. Botirovna, M. A. (2024). Exploring the Distinctive Features of Learning Management Systems in Enhancing Academic Writing in Higher Education. *Ustozlar uchun*, 57(4), 546-549.
11. Murtazaev, E. M., Nabiyev, E. S., Berdiyev, S. A., Sharipov, S. P., Karimov, A. Q., & Boymuratov, F. X. (2023). Analysis of the effect of heat and corrosion on the mechanical properties of metal structures. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 410, p. 02053). EDP Sciences.
12. Nabiev, E. (2023). Reliability study of irrigation canals and pipe culvers. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 410, p. 05025). EDP Sciences.
13. Khuzhakulov, R., Abdimuminov, E. F., & Nabiev, E. S. (2020). Influence of Filling Soil from Pipe Side on Pipe Strength. *Central Asian Journal of mathematical Theory and Computer Sciences*, 1(10), 1-4.
14. Nabiyev, E. (2022). Complexities of Foreign Policy and the Role of Turkey in the System of International Relations. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(3), 416-420.
15. Murtazaev, E. N. (2022). About the compositional structure of plot of war works. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 98-103.